



**IMOM BUXORIY NOMIDAGI
TOSHKENT ISLOM INSTITUTI**

**“ISLOM DINI ASL
MANBALARINI TALQIN
QILISHDAGI YONDASHUVLAR:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

*mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman tezlari to‘plami*

II

**O‘ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI
IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT
ISLOM INSTITUTI**

**“Islom dini asl manbalarini talqin
qilishdagi yondashuvlar: muammo
va yechimlar”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
tezislari to‘plami

II

TOSHKENT – 2025

UO'K 28-24-472:001.891
KBK 86.38+72
P 87

**Islom dini asl manbalarini talqin qilishdagi yondashuvlar: muammo
va yechimlar II to'plam** [Matn]. – Toshkent: Sahifa, 2025. – 468 b.

Mas'ul muharrir:

Uyg'un G'AFUROV – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti rektori, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

Soatmurod Primov – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti ilmiy ishlar va fan bo'yicha prorektor, islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jamoliddin Karimov – Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tahrir hay'ati:

Suvonov Fazliddin Sodiqovich – *“Qur'on ilmlari” kafedrası katta o'qituvchisi*

Mirzamiddinov Asliddin Abdumuminovich – *“Qur'on ilmlari” kafedrası o'qituvchisi*

Abduvoxidov Abdullo Shukrullo o'g'li – *“Hadis va islom tarixi fanlari” kafedrası detsenti v.b.*

Naqibxonov Saidasror Osimxon o'g'li – *“Hadis va islom tarixi fanlari” kafedrası kabinet mudiri*

Musahhih:

Normatov To'liqin – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti devonxona mudiri

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislari to'plamida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar, doktorantlar va soha mutaxassislarining Qur'on ilmlari va tafsirga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlardagi yondashuvlar, Oyatlar tafsirida jamiyat taraqqiyoti masalalarining yoritilishi, Qur'oni karimning yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyotidagi o'rni, Qur'oni karim turli adashgan toifa va oqimlarga raddiya, Qur'onga hurmat dunyo barqarorligi garovi, Zamonaviy oqimlarning botil iddaolariga ahli sunna val jamoa ulamolarining hadislarga asoslangan ilmiy raddiyalari, Hadislarni ahli sunna val jamoa nuqtayi nazaridan talqin qilishning ahamiyati, Hadis turlari va ularning darajalariga doir tezislari o'rin olgan.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislari islom dini asl manbalarini talqin qilishdagi yondashuvlar: muammo va yechimlar bilan bog'liq qiziqarli faktik ma'lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu tezislari to'plamidan tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, pedagoglar, oliy o'quv yurti magistrant va bakalavriant talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislari to'plami Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining 2025-yil 8-maydagi 07-sonli Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2025-yil 11-iyuldagi 03-07/4193-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

SO‘ZBOSHI

Qur’oni karim va hadisi shariflar kishilarni insonparvarlik, vatanparvarlik, bunyodkorlik kabi ezgulikka, insoniyatga zarar keltiruvchi har qanday illat va salbiy holatlardan uzoqlashishga chaqirishga qaratilgan. Ammo diniy qadriyatlardan o‘z g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishni ko‘zlagan ayrim guruhlar ushbu manbalarda kelgan oyat va hadislarini buzib talqin etishga harakat qilmoqdalar.

Bugungi kunda ham har vaqtda, zamonda bo‘lganidek dinni niqob qilgan holda soxta salafiy, hizbiy, akromiy, IShID va boshqa bir qancha guruhlar yuzaga kelayotganini afsus bilan qayd etish lozim. Bular orasida o‘zining serqirraligi, tarixiy oqimlarning ayrim qarashlarini o‘zida u yoki bu jihatdan mujassam etgani bilan ajralib turadigan soxta salafiyalar islom ummatiga o‘ta xatarli va fitnaga boy firqa sifatida shakllandi.

“Xorijiylar” islom tarixida radikal guruh sifatida tanilgan bo‘lib, VII asrda birinchi bo‘lib rahbarga qarshi chiqqanlardan hisoblanadi. Ular Qur’ondagi “Hukm Allohdan o‘zganiki emas” An’om surasi 57-oyati bilan o‘z bosqinchiliklarini oqlamoqchi bo‘lgan edilar. Bu bilan ular «rahbar hukm chiqarishga haqli emas, faqat Allohning kalomi bilangina ish tutish lozim» demoqchi edilar. Ammo Payg‘ambar alayhissalomning kuyovlari bo‘lmish o‘sha davrdagi musulmonlar peshvosi Ali ibn Abu Tolib raziyallohu anhu ularning bu so‘zlari va qilmishlariga nisbatan “Botil maqsadni ko‘zlab aytilgan haq so‘z” degan edilar. Keltirilgan misoldan ko‘rinadiki, mutaassib guruhlar o‘zlarining qilayotgan ishlarini doimo diniy manbalar, xususan Qur’on oyatlari bilan g‘arazli yo‘l bilan talqin qilishga harakat qilganlar. Lekin ularning bu urinishlariga qarshi islom ulamolari asosli raddiyalar berganlar.

Hadislarni o‘z manfaatlariga mos tarzda talqin etishga harakat qilish mutaassib guruhlarning faoliyatida kuzatilgan. Ular o‘z g‘arazli maqsadlariga xizmat qiluvchi g‘oyalarni hadislar orqali kishilar ongiga yetkazishga urinar edilar. Chunki musulmonlar orasida hadis oddiy so‘zdan ko‘ra ko‘proq tinglanar va qabul qilinardi. Ba‘zan manfaatlariga mos keluvchi hadis topa olmasalar, soxta hadislarini ham to‘qir edilar.

Tinchlik, millatlar va dinlararo bag‘rikenglik, Vatanni ardoqlash, oilani muqaddas sanash kabi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi dinimiz nomiga dog‘ tushurgan va butun jahon xalqlari nigohida islom dinini “terrorizm dini”ga

aylantirishga xizmat qilayotgan va musulmonlarni islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan tarixiy xizmatini yo'qqa chiqarayozgan soxta salafiylik XXI asrda musulmonlar boshiga kelgan eng katta musibat bo'ldi. Bu oqim ko'plab ulamolarning joniga qasd qilish, xudkushlik, tinch aholini qirib tashlash, voyaga yetmagan bolalarni qo'liga qurol berish, olimlarni qadrsizlantirish kabi musulmonchilikka umuman to'g'ri kelmaydigan sifatlarga egaligi bilan musulmonlarni jahon hamjamiyati oldida qadrsizlanishiga xizmat qildi.

Imom Buxoriy, Muslim, Termiziy kabi muhaddislar IX asrda ishonchli, sahih hadislarini to'qima va zaiflaridan ajratib berilishi islom niqobi ostida turli buzg'unchi g'oyalar tarqalishiga keskin zarba berdi. Ammo din nomidan g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga intiluvchi kuchlar bu bilan o'z faoliyatlarini to'xtatmadilar. Endi ular maqsadga erishishda "sahih hadislar"ni o'zlariga qurol qilib olishga kirishdilar. Buning uchun hadis matnini buzish yoki yangilarini to'qish emas, balki mavjudlarini o'z manfaatlariga mos tarzda talqin etish va shuningdek, ayrim ularning fikriga zid bo'lgan hadislarini zaif va ishonchsizga chiqarish yo'liga o'tdilar. Bu kabi salbiy holatlar ham hadis ilmi olimlari e'tiboridan chetda qolmadi. Buning oldini olish uchun ular hadislarini to'g'ri tushunish va talqin etish shartlarini ishlab chiqdilar.

Hadislarini to'g'ri tushunish va talqin etish uchun zarur bo'lgan asosiy shartlardan biri sifatida arab tilini yaxshi bilish sanaladi. Zero, inson gapirganda tilning barcha imkoniyatlardan foydalanishga harakat qiladi. Maqol, hikmatli so'z, frazeologik iboralarni ishlatmay turib maqsadni ta'sirli ifodalab bo'lmaydi. Hadislarini o'rganish natijasida Payg'ambar alayhissalom ham gapirganda arab tilining imkoniyatlardan naqadar keng foydalanganliklari ma'lum bo'ladi.

Bir tildan boshqasiga so'zma-so'z tarjima qilganda aytuvchining maqsadini to'g'ri ifodalab bo'lmaydigan iboralarni ajrata olish uchun kishi o'sha tildagi mazkur iboralarning etimologiyasi, ishlatilish o'rinlari va ma'nolarini bilishi talab etiladi. Xususan, hadislarini to'g'ri anglash uchun muhaddis arab tili grammatikasi, ya'ni "sarf", "nahv" ilmlarini va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan "balog'at", "fasohat" ilmlarini ham o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Payg'ambar alayhissalom Quraysh qabilasidan ekanliklarini ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bu lahjaning boshqa arab qabilalaridan farqli jihatlari bor edi.

Arabiston yarim orolidagi markaziy shaharlardan biri bo'lgan Makkaga xos Quraysh lahjasi ancha mukammal va "fasih" (adabiy) hisoblangan. Bu esa hadis matnining shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazmasligi mumkin emasdi. Shuningdek, "balog'at" va "fasohat"li Qur'on oyatlari ham Payg'ambar alayhissalomga ilhomlanish manbai bo'lgan. Chunki hadislar islom dinining Qur'ondan keyingi ikkinchi asosiy manbasi bo'lib qolishi ham bejiz emas edi. Shundan kelib chiqqan holda, kam so'zli ammo serma'no hadislarni, ulardan olinadigan xulosa, pand-nasihat va ibratlardan iborat hadislarni to'liq tushunish va o'zlashtirish uchun arab tili, uning balog'at va fasohatini mukammal o'rganish lozim bo'ladi.

Hadislar orasida ba'zan Qur'on ta'limotiga mos kelmaydiganlari ham uchrab qoladi. Bu esa ularning to'qilgan va soxta ekanini ko'rsatadi. Ba'zan esa ishonchli hadislar orasida ham ko'rinishidan Qur'on ta'limotiga go'yo zid hadislar ham chiqishi mumkin. Bu holatda hadisning sharhini o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

Qur'oni karim Alloh taolo tomonidan butun bashariyatni qiyomatga qadar baxt va saodat quchishlari, dunyo-oxiratda rohat va farog'atda yashashlari uchun nozil qilingandir. Binobarin, unda kishilik jamiyatining eng oddiy jihatlaridan tortib, to murakkab jarayonlarga qadar barcha jihatlar qamrab olingan. Unda har bir insonning tug'ilganidan boshlab to vafotiga qadar muhtoj bo'ladigan barcha yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan. Unda insonlarning o'zaro haq-huquqlariga oid qonun va qoidalar, musulmonlar jamiyatining tartib va nizomi, paydo bo'lgan muammolarning eng to'g'ri yechimlari batafsil bayon qilingandir.

Hadislarning sabab va maqsadlarini chuqur tushunib yetish ularni to'g'ri talqin etish uchun zaruriy omillardan hisoblanadi. Ba'zi hadisi shariflarning aytilish sababi va o'ziga xos ko'zlangan maqsadlari bor. Ayrimlarida ma'lum bir shaxsga, zamonga, makonga, shart-sharoitga oid bo'lgan muammolar aytib o'tilgan bo'ladi. Shu kabi sabablarga ko'ra hadislarni to'g'ri tushunish uchun yetarli ilm, qunt, sabot, shar'iy hukmlarni tushuna olish, islom dini ta'limotlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lish zarur. Bu esa hadisi shariflarda kelgan ko'rsatmalarning umumiy, xos, vaqtincha, doimiy, juz'iy va kulliy, mutlaq va muqayyad ekanini yaxshi anglab olish va idrok qilishga yordam beradi.

Islom tarixiga murojaat etsak, ko'ramizki, daslab, u nozil bo'layotgan davrda Payg'ambarimiz Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)ning o'zlari as'hoblariga Qur'oni karimning ba'zi oyatlarini keng tushuntirish, ular-

ning ma'nosidagi maxfiylikni ochib berganlar. Uni sahobai kiromlar zehnlarida saqlab, og'izma-og'iz bir-birlariga, keyinchalik tobiinlarga yetkazganlar. O'z navbatida Qur'oni karimning ba'zi oyatlari ma'nosini sahobalar ham Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)dan eshitganlariga qo'shimcha ehtiyojga muvofiq ijtihod qilib tafsir qilganlar. Shuni ta'kidlash joizki, Qur'oni karim ma'nolarini tushunishda sahobai kiromlarning fikrlash darajalari ham, o'z tillari hikmatlarini ajrata bilish qobilyatlari ham bir-birlarini kidan farq qilgan.

Demak, sahobai kiromlar Alloh taolo nozil qilgan oyatlarni o'zlaricha tushunganlar, tushunmagan joylarini boshqa ulug'roq sahobalardan so'rab bilganlar yoki o'z ehtiyojlariga muvofiq tushuntirib berish uchun Payg'ambarimiz Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)ga murojaat qilib turganlar. U zot alayhissalom oyatlarning hikmatlarini, ulardan hosil bo'ladigan tushunchalarni bayon qilib berganlar.

So'nggi paytda islomiy ommaviy axborot vositalarida "o'rtacha yo'l"dan borish zarurligi g'oyasi ilgari surila boshlandi ("vasat" so'zining arab tilidagi bir necha ma'nolaridan biri "o'rta"dir). Dunyoning bir qator mam-lakatlarida vasatiyani o'rganish markazlari tashkil qilinmoqda, xalqaro anjumanlar o'tkazilmoqda, adabiyotlar nashr qilinmoqda. Saudiya Arabistonidan yirik olimlar, qirolning oila a'zolari ham radikal oqimlar bilan bo'ladigan munozalarda bu atamani ko'p ishlatmoqdalar.

Radikal salafiylik vakillari esa bu yangi g'oyani norozilik bilan qarshi oldilar, bu yerdan ham g'arbning "Islomni liberallashtirish"ga qaratilgan navbatdagi g'alamisligini topishga urindilar. Ammo bu safar masala jiddiy-roq bo'lib chiqdi – islomiy ta'limot va an'analarga asoslangan bu g'oyani musulmonlarning o'zlari ilgari surdilar. Mazkur tashabbusning maqsadi islomda Alloh Taolo bergan o'zgarmas g'oyani o'zgartirish emas, balki «in-son omili»ni – musulmonlar orasida islom ta'limoti haqida tarixan shakllanib qolgan ba'zi qarashlarni tanqidiy muhokama qilish, Qur'oni karim oyatlarining yanada teran ilohiy hikmatlarini anglash va ularni bugungi, zamonaviy hayot tarziga tatbiq qilish, islomga xos bo'lgan g'oyaviy barkamollik va insonparvarlik salohiyatini yanada kengroq ochib berishdir.

Islom niqobi ostida faoliyat ko'rsatayotgan ekstremistik harakatlar-ni insonning ongi va qalbini egallash maqsadida har qanday yomon razil yo'llardan foydalanish avj olayotgani sir emas. Bunda kuchlarning dini-miz asoslarini, Qur'on oyatlari va hadislarning asl mohiyatini buzib talqin qilish, jamiyat hayotiga tahdid soladigan ishlarni, islom bilan bog'lanishga

urinishi esa ularning har qanday qabihliklardan ham qaytmasliklaridan darak beradi.

Alloh taolo Qur'oni karimni arablarga va arab bo'lmaganlarga arab tilida va ularning bayon qilish uslubida nozil qildi. Shuning uchun ham sahobalar uning ma'nolarini anglay oldilar, oyatlardan murod nima ekanligini tushundilar. Ba'zida tushunmay qolgan joylarini esa Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) tafsir qilib berdilar. Shuningdek, Qur'oni karimda bayon qilinmagan masalalar va ahkomlarni Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) hadislarini orqali yetkazdilar. Shu tariqa sahobalar Allohning dinini bevosita Allohning elchisidan oldilar.

Keyinchalik, islom diniga tili va millati arab bo'lmagan kishilar ham kirib kela boshladi. Tabiiyki, ular Qur'oni karimning bayon uslubi, jummalari-ning tuzilishi, ba'zi so'zlarning ma'nolari, ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni anglashdan ancha yiroq edilar. Shu vaqtga kelib Alloh taolo Ali razi-yallohu anhuga ilhom berdi, u kishi arab tili e'robi va qoidalarini tuzib chiqdilar. Natijada, nahf ilmi, keyinchalik sarf, balog'at kabi ilmlar paydo bo'ldi. Shu zaylda arab tilining qonun-qoidalarini, asoslari, uslublari, sohalariga bog'liq ilmlar turi ko'paydi. Bularning barchasi, Qur'oni karimni tushunishga xizmat qilish maqsadida paydo bo'ldi.

Arab bo'lmagan musulmonlar yoki arab bo'lsada zohirida musulmonlikni da'vo qilib, aslida musulmonlar o'rtasida fitna chiqarish niyatida bo'lgan kimsalar avvalgi musulmonlarga notanish bo'lgan diniy aqidalar va tushunchalarni tarqata boshladilar. Natijada, katta tobeinlar va ulardan keyingi ulamolar mazkur tushunchalarni to'g'ri talqin qilishga chaqirishlari orqali islom qonun-qoidalarini, imon arkonlari, ularga doir masalalar misollari bilan keltirilgan holda ishlab chiqildi. Alloh taolo ba'zi ulamolarni Qur'oni karim oyatlari, Payg'ambar alayhissalomning sunnatlari orqali, hatto aqliy va mantiqiy dalillar bilan buzuq e'tiqodlarni fosh etishlariga muvaffaq qildi.

Bizning davrimizga kelib islom dini haqida bilimlarini oshirish maqsadida o'qib-o'rganayotgan, xususan internet tarmog'idan foydalanayotgan yurtdoshlarimiz, ayniqsa yoshlarning soni ortib borayotgani ma'lum. Ammo, ana shu saytlarning barchasida ham aqidaviy masalalarda bizning diyorimizda an'ana bo'lgan Moturidiya aqidasi muvofiq fikrlar berilmaydi. Aqida masalalarida yetarli bilim ega bo'lmaganlar o'zlari bilmagan holda Moturidiya aqidasi xilof bo'lgan masalalarda bilib bilmay so'z aytib qo'yishlari musulmonlar o'rtasida fitna chiqishiga sabab bo'lib qoli-

shi mumkin. Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyo musulmonlarini tashvishga solib turgan Suriya va Iroqda sodir etilayotgan qonli voqealarga sabab ham aynan aqidaviy masalalarni to'g'ri anglamaslikdandir. Masalan, amalni imonning shartlari qatoriga kiritish bilan islom shariatida buyurilgan amallarni bajarmayotgan yoki dinda qaytarilgan ishlarni qilayotgan kishilarni mo'min emas, degan ayblov bilan ularning qonini to'kish va mollarini talon taroj qilish halol deyayotganlari ilm ahllariga ma'lum.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turli mutaassib guruhlar islom manbalarini o'z manfaatlariga mos ravishda buzib talqin etishga harakat qilmoqdalar. Qur'on va hadis nomidan gapirgan, ammo mutaassiblik, itoatsizlik, zo'ravonlik yo'lini tutgan guruhlarining so'ziga ergashish na diniy va na dunyoviy jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. Diniy manbalarni to'g'ri tushunishga oid ilmlarni bilmay turib o'zboshimchalik bilan xulosa qilish, nimanidir halol yoki haromga chiqarish, kimnidir kofir yoki gunohkorga chiqarish to'g'ri bo'lmaydi. Zero, diniy manbalardan din ilmlarini yaxshi bilgan olimgina hukm chiqarishi mumkin.

Uyg'un G'AFUROV

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti rektori, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

AHMAD IBN YAHYO BALAZURIYNING “FUTUH AL-BULDON” ASARIDA TAFSIR VA HADIS ILMIGA OID MA’LUMOTLAR TAHLILI

Sohibjon UMMATALIYEV

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi “Islomshunoslik va islom
sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO”
kafedrası o‘qituvchisi, tarix fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel: +998 97 445 55 62*

Dunyo tamadduni rivojiga katta hissa qo‘shgan islom madaniyati tarixida IX-X asrlar alohida ahamiyatga ega. Bu davrda Qur‘on, tafsir, hadis, fiqh, siyrat kabi islom ilmlari bilan bir qatorda matematika, handasa, astronomiya, tibbiyot singari fanlar rivoj topdi. “Sharq uyg‘onish davri” nomini olgan mazkur asrlarda ijod qilgan alloma va mutafakkirlar faqat bir fan tarmog‘i doirasida ilmiy izlanish bilan chegaralanib qolmay, bir necha yo‘nalishlarda qalam tebratdilar.

Muso Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar o‘z davrida ko‘plab ilmlarni o‘rganish bilan birga o‘sha sohalarida qimmatli asarlar ham yozib qoldirdilar. Ularning yozgan asarlarida bir necha fanlarga oid ma’lumotlar uchraydi. Xususan, “muhaddislar sultoni”, “hadis ilmida mo‘minlar amiri” unvonlari bilan sharaflangan imom Buxoriy asarlarining aksar qismi hadis ilmiga tegishli bo‘lsa-da, undan fiqh, tafsir va tarix ilmi mutaxassislari ham barobar foydalanishadi va o‘z ilmiy yo‘nalishlari uchun muhim manba deb hisoblaydilar. Demak, birinchi Sharq uyg‘onish davridagi mutafakkirlar turli fan tarmoqlarida ijod qilganlar va bu omil ularning asarlarida namoyon bo‘ladi.

Ahmad ibn Yahyo Balazuriyning “Futuh al-buldon” asari ham tarkibida bir necha fanlarga doir ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan manbalardan sanaladi. Uning asosiy mazmuni ilk o‘rta asrlarda islom dinining Osiyo va Afrika bo‘ylab tarqalishi haqida bo‘lsa-da, asarda hadis, tafsir, fiqh va arab adabiyoti kabi ilmlarga oid ma’lumotlar ham mavjud. Quyida mazkur asardagi tafsir ilmiga oid ba’zi jihatlar keltirib o‘tiladi.

Balazuriy islomning tarqalishiga oid ma’lumotlarni bayon qilishda Qur‘oni karim oyatlari va ularning tafsirini ham keltirgan. Bu omil muallif-

ning tafsir ilmida ham chuqur bilimga ega bo'lganini ko'rsatadi. "Futuh al-buldon" asarida aks etgan ba'zi voqealar Qur'oni karim Muhammad (alayhissalom)ga nozil qilingan davrni qamrab oladi. Shuning uchun tarixchi Qur'oni karim oyatlaridan istifoda qilgan. Quyida ulardan ayrimlari keltirib o'tiladi.

Balazuriy Qubo masjidi qurilishi mavzusida Tavba surasining 107-109 oyatlarini keltirib, ularni tafsir qilgan. Muallif 108-oyatda aytilgan **"Taqqo asosiga qurilgan masjid"** qaysi masjid bo'lganligi masalasiga alohida to'xtalib, shu mavzudagi hadis va rivoyatlarni keltirgan. Said ibn Jubayr va Hasan Basriydan qilingan rivoyatga ko'ra oyatdagi masjid Qubo masjidi bo'lgan. Sahl ibn Sa'd, Abdulloh ibn Umar, Ubay ibn Ka'b va boshqa roviylar fikriga ko'ra **"Taqqo asosiga qurilgan masjid"** Nabiy (alayhissalom) ning Madinadagi masjidlari hisoblangan¹.

Madina shahridan yahudiylarning Banu Nazir nomli qabilasining chiqarib yuborilishi va ularning mol-mulki makkalik muhojirlar o'rtasida taqsimlanishi mavzusida Hashr surasining tegishli oyatlari² (Hashr surasi 1-7, 9-oyatlar) keltirilgan va tafsir qilingan. Xususan, Hashr surasi 5-oyatdagi لَبَنَةً so'zi lug'at jihatidan "yumshoqlik" ma'nosini anglatsa-da, u yerda xurmo nazarda tutilgani aytilgan³.

Hijriy 7/628-yilda Madinaning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Xaybar va Fadak hududlari fath etilgan. Balazuriy mavzuni yoritish davomida Fath surasidagi **"(Alloh taolo) ularni yaqin fath bilan mukofotladi"**⁴ (Fath surasi 18-oyat) oyatdan Xaybar, **"Va sizlar qodir bo'lmagan boshqasini ham (va'da qildi)"**⁵ (Fath surasi 21-oyat) oyatdan Fors va Vizantiya davlatlari, Hashr surasidagi **"Alloh O'z Rasuliga ulardan qaytarib bergan narsaga sizlar ot yoki tuya choptirib bormadingiz"**⁶ (Hashr surasi 6-oyat) oyatdan Fadak iroda qilinganini aytgan⁷.

¹ Ahmad ibn Yahyo Balazuriy. Futuh al-buldon. – Bayrut: Muassasa al-maorif, 1987. – B. 8-11. (Keyingi o'rinlarda "Futuh al-buldon" shaklida beriladi).

² Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti; tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2018. – B. 545-546. (Keyingi o'rinlarda "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" shaklida keltiriladi)

³ Futuh al-buldon. – B. 28-31.

⁴ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti; tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2018. – B. 513.

⁵ O'sha manba. – B. 513.

⁶ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – B. 546.

⁷ Futuh al-buldon. – B. 36-37, 44.

Makka shahrining fath qilinishi mavzusida shaharning muqaddasligi, shuning uchun u yerdagi uylarni sotish va ularda ijarada turuvchi ziyorat-chilardan haq olinmasligi masalasiga alohida urg'u qaratilgan. Mazkur mavzuga doir hadislar bilan birga Haj surasi 25-oyatida kelgan **"Masjidul Haromni yerli va chetdan kelgan odamlar uchun barobar qilib qo'y-dik"** jumlasini keltirilgan. Oyat tafsirida Balazuriy Makkaga haj va umra ziyoratiga keluvchi musulmonlar o'zlari istagan uylarida yashashlari mumkinligi, ularni hech kim uyidan chiqarib yubora olmasligi to'g'risida ma'lumot bergan. Shuningdek, asarda Umar ibn Xattobning Makka aholisiga murojaat qilib aytgan ushbu so'zlari keltirilgan: "Sahrolik arablar xohlagan vaqtida kelib yashashi uchun uylaringizga darvoza o'rnatmanglar"¹.

Imom Abu Hanifa No'mon ibn Sobit (80/699-150/767) faqat haj mavsumida uylardan ijara haqi olish makruh bo'lishini aytgan². Balazuriy masalaga taalluqli bo'lgan muhaddis, faqih va mufasssir olimlarning aksarining fikrlarini keltirib o'tgan. Tafsir va fiqh ilmiga aloqador bo'lgan ushbu mavzu mufasssir va faqihlar tomonidan atroflicha o'rganilgan va bir necha manbalarda bayon qilingan. Xususan, Abu Bakr Jassos (305/917-370/980) ning "Ahkom al-Qur'an"³, Suyutiy (849/1445-911/1505)ning "Ad-durr al-mansur"⁴, Ibn Hajar Asqaloniyning "Fath al-boriy sharh sahih al-Buxoriy"⁵, Badriddin Ayniy (762/1360-855/1451)ning "Umdat al-Qori"⁶, Jamoliddin Zaylaiy (vaf. 762/1360)ning "Nasab ar-Roya lihadis al-Hidoya"⁷ asari va boshqa kitoblarda ushbu masala yoritilgan. "Futuh al-buldon" asari ushbu mavzu doirasida eng qadimiy manbalardan biri hisoblanadi.

Najron⁸ sulhi mavzusida najronlik ikki kishining Madinaga kelib Rasullulloh (alayhissalom) bilan bahs qilganligi xususida so'z boradi. Najron el-

¹ Abu Mansur Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'an. – Istanbul: Dar al-Mizan, 2007. – J. IX. – B. 364.

² O'sha asar. – B. 60.

³ Abu Bakr Jassos. Ahkam al-Qur'an. – Bayrut: Dar ihya at-turoso al-arobiy, 1992. – J. V. – B. 61-62.

⁴ Jaloliddin Suyutiy. Ad-durr al-mansur fi tafsir al-ma'sur. – Bayrut: Dar al-fikr, 2011. – J. VI. – B. 24-26.

⁵ Ibn Hajar Asqaloni. Fath al-boriy. – Bayrut: Dar ar-risala al-ilmiyya, 2013. – J. VII. – B. 378-379.

⁶ Badriddin Ayniy. Umdat al-Qori. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 2001. – J. IX. – B. 321-327.

⁷ Jamoliddin Zaylaiy. Nasab ar-Roya lihadis al-Hidoya. – Jidda: Dar al-qibla lis-saqofa al-islamiyya, 1938. – J. IV. – B. 266-267

⁸ Najron – Saudiya Arabistonining janubi-g'arbiy qismida joylashgan shahar. U qadimiy shaharlardan biri bo'lib, aholisi dehqonchilik bilan shug'ullangan.

chilari nasroniylik diniga mansub bo'lib, Nabiy (alayhissalom) bilan Iso (alayhissalom) haqida bahs qilishgan. Shundan so'ng "Oli Imron" surasi-ning 58-61-oyatlari nozil bo'lgan¹. Najron sulhi mavzusida yana bir necha oyatlar tafsiriga murojaat qilingan. Xususan, islomni qabul qilmagan arab qabilalari haqida Baqara surasining 193-oyati, ahli kitoblar² haqida Tavba surasining 30-oyati nozil bo'lganligi aytilgan.

Muallif oyatlarni biror ma'lumotni ishonchli ekanligini bildirish uchun-gina keltirmagan. Balki, mavzuga aynan aloqador mazmundagi oyatlarni keltirib, uni tafsir qilishga ahamiyat bergan. Albatta bu narsa Balazuriy-ning tafsir ilmida qay darajada salohiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Futuh al-buldon asaridan bir necha mufasssirlar foydalangan. Xususan, Xatib Sharbiniy (vaf. 977/1569) "Tafsir as-siroj al-munir"³, Burhoniddin Baqoiy (809/1406-885/1480)ning "Nazm ad-durar fi tanosib al-ayat va as-suvar"⁴, Muhammad Rashid ibn Ali (1282/1865-1354/1935)ning "Taf-sir al-manor"⁵ kabi tafsir kitoblarida "Futuh al-buldon"da kelgan ma'lu-motlarni uchratish mumkin. Bunga sabab asarning dastlabki birlamchi manba sifatida e'tirof etilishidir.

Muallif yashagan davr hadis ilmi rivojlangan va undan tarix, fiqh va boshqa sohalar ajralib chiqqan davr bo'lsa-da, tarixchilar voqealarni ba-yon qilishda muhaddislar uslubiga amal qilganlar. Tarixiy jarayonlarni yo-ritishda uning roviylarini keltirib, o'sha mavzuga taalluqli bir necha rivo-yatlarni naql etadilar. Ahmad ibn Yahyo kitobidagi voqealar ilk islom tari-xiga oid bo'lib, ularni Muhammad (s.a.v.) va sahobalar so'zlaridan foyda-lanmay hikoya qilish imkonsiz sanaladi. Shuning uchun tarixchi Salohid-din Safdiy Balazuriyni bejizga olim, shoir, fozil va roviy deya ta'riflamagan bo'lsa kerak⁶.

Muallif asarda naql qilgan hadislar Hokim Naysoburiy (321/933-405/1014)ning "Al-Mustadrak a'la as-sahihayn"⁷, Ibn Asokirning "Tarixi

¹ Futuh al-buldon. – B. 86.

² Kitob ahllariga [xristianlik](#) va yahudiylikka e'tiqod qiluvchilar kiritilgan.

³ Sharbiniy. Tafsir as-siroj al-munir. – Qohira: Al-matba'a al-amiriyya, 1868. – J. III. – B. 246.

⁴ Burhoniddin Baqoiy. Nazm ad-durar fi tanosib al-ayat va as-suvar. – Qohira: Dar al-kutub al-islamiy, 1984. – J. XV. – B. 351.

⁵ Muhammad Rashid Rizo. Tafsir al-manor. – Qohira: Dar al-manor, 1947. – J. X. – B. 349.

⁶ Salohiddin Safdiy. Kitab al-vafiy bil-vafiiyyat. – Bayrut: Dar ihyo at-turos al-arobiy, 2000. – J. VIII. – B. 155.

⁷ Hokim Naysoburiy. Al-Mustadrak. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 2002. – J. I. – B. 645.

Madinati Damashq”¹, Ahmad ibn Hajar Asqaloniyning “Al-Isoba fi tamyiz as-sahoba”² va boshqa mo’tabar manbalarda keltirilgan. Shamsiddin Zahabiy “Tazkira al-huffoz” asarida Balazuriyni hofiz³ deb nomlagan va uni muhaddis Abu Dovud Sijistoniyni tabaqasidan bo’lganligini aytgan⁴.

Xulosa qilinganda, “Futuh al-buldon” asari asosiy mavzusi fath yurishlari tarixiga oid bo’lsa-da, unda Qur’oni karim tafsiri, hadis, fiqh ilmiga doir ma’lumotlarni uchratish mumkin. Chunki VIII-IX asrlarda ijod qilgan olimlar ma’lum soha doirasida cheklanib qolmay islom ilmlarining barchasidan voqif bo’lganlar va asarlarida ushbu omil aks etgan. Shuning uchun keyingi davr mufasssirlari Qur’oni karimni tafsir qilishda “Futuh al-buldon”ga ham murojaat qilganlar.

¹ Ibn Asokir. Tarixu madinati Damashq. – Bayrut: Dar al-fikr, 1995. – J. VI. – B. 75-76.

² Asqaloniyni. Al-Isoba. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 1995. – J. II. – B. 82.

³ Hofiz – hadis ilmida hofiz so’ziga turlicha ta’rif berilgan. “Al-Mo’jam al-Vasit”da uch yuz mingta hadis matni va sanadini yod bilgan kishi hofiz darajasiga yetishi aytilgan.

⁴ Shamsiddin Zahabiy. Tazkira al-huffoz. – Haydarobod (Hindiston): Daira al-maorif, 1958. – B. 892.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI.....	3
----------------	---

1-SHO'BA

QUR'ON ILMLARI

Davronbek MAXSUDOV Islom manbalari talqinidagi ba'zi muammo va yechimlar xususida.....	9
Soatmurod PRIMOV Qur'oni karim oyatlari va hadislarining ma'nolarini to'g'ri tushunishning ahamiyati.....	14
Jahongir RO'ZIYEV Sulaymon Jamzuriyning qiroat va tajvid ilmida bebaho asari.....	21
Farhod JO'RAYEV "Nosix va mansux" ilmining ahamiyati.....	26
Jahongir NE'MATOV "Al-Muqaddima al-jazariyya" asariga oid zamonaviy tadqiqotlar tahlili.....	32
Abdumalik EGAMOV Najmiddin Kubroning "Taviloti an-najmiya" asarida Fotiha surasi tafsiri.....	37
Ulug'bek HASANOV Vahba Zuhayliyning islom ilmlariga qo'shgan hissasi.....	40
Komiljon RAHIMOV Islomshunoslik yo'nalishidagi dolzarb muammolar.....	48
Odiljon QORIYEV Islom ilmlariga oid asarlarning tarjimalari xususida.....	57
Миродил ХАЙДАРОВ Перспективы развития сотрудничества исламских ученых Узбекистана и России: исторические предпосылки и современность	62
Sohibjon UMMATALIYEV Ahmad ibn Yahyo Balazuriyning "Futuh al-buldon" asarida tafsir va hadis ilmiga oid ma'lumotlar tahlili.....	67
Nilufar TUYCHIEVA Tasavvufiy tafsirlar va ularning ahamiyati.....	72
Mumin Mirzo ABDUPATTAYEV "Mafotih al-asror" asarining tafsirshunoslikda tutgan o'rni.....	75
Shamsiddin YODGOROV Qur'on ma'nolarini to'g'ri fahmlashda tafsir ilmining ahamiyati (Qur'onni Qur'on bilan tafsir qilish misolida).....	81
الدكتور سيف علي العصري أساليب الوحي الجليل في إيضاح الحق ورد الغلو في التأويل والتنزيل	88
إبراهيم محمد بعض الشبهات المثارة حول القرآن الكريم و كيفية الرد عليها	93
100 الدكتور أنوار أحمد خان الهندي البغدادي التعريف بالتفسير العلمي للقرآن الكريم وأهم مصادره، والموقف الوسيط منه	

Ahmadxon RASHIDOV Qiroat ilmining paydo bo'lish sabablari.....	108
Jalalatdin ABDIRAZAQOV Mutashobih oyatlar ma'nolari atrofidagi bahslar.....	113
Abdurasul ABDULLAYEV Qur'oni karim tafsiri misolida islom ta'limoti gnoseologiyasiga ratsional yondashuv.....	120
Valixon AZIMBAYEV Qiroatdagi lafziy farqlar va ularning hukmlarga ta'siri.....	126
Islomxon UBAYDULLAYEV Ali Qori va u kishining "Anvor al-Qur'on va asror al-furqon" asarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili.....	131
Yoqub BUXARBAYEV Nasxi Buxoriy xatida ko'chirilgan Qur'oni karimlar.....	139
Surayyo IBRAGIMOVA "Kalola" oyatlarini tafsir va fiqh asosida to'g'ri tushunish va talqin qilish.....	146
Omon QODIROV Qur'oni karimda adashgan toifa va oqimlarga raddiya berish uslublari.....	151
Shomirza IBRAGIMOV Movarounnahr xattotlik maktabi shakllanishida "rasmul-mus'haf" ilmining ahamiyati.....	157
Abdurasul ABDULLAYEV Zohiriylik mazhabining islom ummatiga bo'lgan zararlari.....	161
Durbek RAHIMJONOV Abu Hafs Nasafiy moturidiya ta'limoti davomchisi sifatida.....	166
Jaxongir TOHIROV Radikal g'oyalarga qarshi kurashishda moturidiyaning ahamiyati.....	169
Qudratulloh SIDIQMETOV Islom dini manbalarida o'z joniga qasd qilish masalalari tahlili.....	173
Muhammadali ZOHIDOV Imon mohiyatidagi ixtiloflar – amal imondan bir juz emas.....	177
Alisher ABDULLAEV Me'moriy obidalaridagi bitiklar tahlili (baroqxon madrasasi misolida).....	184
Fazliddin SUVONOV Imom Tahoviyning hayoti va ilmiy faoliyati.....	190
Yahyo ABDURAHMANOV XIX asr oxirida yangicha hayot tarziga oid odatlarning turkiston musulmonlari hayotiga ta'siri.....	197
Sodiq QURBANOV Hoshiyalari bilan tanilgan olim.....	204
Fayzullajon ABDULXAMIDOV Abul Muin Nasafiyning hayoti va ilmiy merosi.....	208

Muhammad Yusuf XOLIQOV Nosiriddin Bayzoviy tafsiriga movarounnahrda yozilgan hoshiyalarning kodikologik tahlil.....	214
Asadullojon AMINJONOV “Madorikut-tanzil va haqiqut-ta’vil” asarining manbashunoslik tahlili.....	219
Sirojiddin SHODMONOV Qiroat ilmida ishlatiladigan istilohlar tahlili.....	225
Abdulhay OXUNJANOV Abu Hafs Nasafiyning tafsir ilmi rivojiga qo’shgan hissasi.....	234
Muhammadzarif DADAMIRZAEV “Al-Fath ar-rahmoniy” asarining tarkibiy tuzilishi tahlili.....	240
Mohinabonu FOZILOVA Shafolat masalasida imom Moturidiy va Abul Muin Nasafiy qarashlaridagi yaqinlik va farqli jihatlar.....	247
مفهوم القصص القرآنية محمد آدمافيتش كانتيميروف.....	254
Iqboljon QAMBAROV Moturidiya ta’limotida aqliy va naqliy dalillarning o’rni.....	263

2-SHO’BA

HADIS ILMLARI

Ma’murjon ERKAYEV Hanafiy mazhabida zaif hadislarning qiyosdan ustun ekani asoslari.....	270
O’tkir G’UZAROV Zamonaviy ixtiloflarga hadislar asosidagi ilmiy raddiyalar.....	276
Hamidulloh AMINOV “Turkiston ulamosi” asarida keltirilgan muhaddislar.....	281
Rahmatulloh SAYFUDDINOV Sahihi Buxoriy asarida jamiyat tinchligi va barqarorligi masalalarining yoritilishi.....	286
Sarvar SAIDOV Imom Buxoriy ma’naviy merosining ijtimoiy-siyosiy jihatlar.....	291
Abdullo ABDUVOXIDOV Abu Iso Termiziy va uning boy ilmiy merosi.....	297
Shamsuddin BAHAUDDINOV Abu Hanifa va hadis masalasi.....	305
Raxmatxon MAXSUMXONOV “Al-Yavoqit fi-l-mavoqit” asarida ruhiy tarbiyaga oid hadislarning yoritilishi.....	312
Oybek HOSHIMOV Mashhur hadis tahlili.....	317
Abdulhamid DJUMANOV Anvarshoh Kashmiriyning asarlarini hadis ilmidagi o’rni.....	322
Baxodirjon AZAMOV Hakim Termiziyniing ilmni foydali va zararli turlarga tasniflash masalasida o’ziga xos yondashuvi tahlili.....	328

Abdulaziz DJUMANOV Umdatul qoriy asari tasnifi.....	335
Abduvosi SHONAZAROV Imom Buxoriyning “at-Tarixul kabir” va “al-Jome’ as-sahih” asarlarining jahon ilm-fani rivojida tutgan o’rni.....	342
Bahodir MIRZAYEV Mustag’firiyning “Fazoil al-Qur’on” asari hadisnavislikka oid muhim manba.....	348
Ikromjon JO’RABOYEV Hadislarni sharhlashda anvarshoh kashmiriyning o’ziga xos yondashuvi.....	354
Faxriddin YERNAZAROV Movarounnahrlik mufasssir va muhaddis ulamolarning ilmiy merosini o’rganishning ahamiyati.....	360
Otabek BAXRIYEV “Sahih Buxoriy” asarinig yozilish uslublari.....	367
Ahad RAYMBERDIYEV Imom Termiziyning “Sunan” asari tafsir bobi va hadis rivoyat qilish uslublari.....	371
Muhammad Mustaf o RO’ZMETOV Hanafiy faqihlar hadislardan hukm olishda qo’yg an shartlar.....	376
Жумабек ИСКЕНДЕРОВ Аҳадхабарҳамоныңхужжетекенлигине шәрий дәлийллер.....	383
Olimjon XUSANBOYEV Hanafiy mazhabida xabar va qiyos o’zaro zid kelganda qanday hukm olinadi.....	388
Muhammada’lo MADRAXIMOV Imom Dorimiy “Sunani”dagi savdo kitobi hadislarining ikki “sahih”ga muvofiqligi.....	393
Gulchexra SIDIKOVA Hadislardan hukm olishda abu hanifaning qarashlari.....	398
Muxlisa NARZULLAYEVA Aqida ilmida ohod xabarlarning tutgan o’rni.....	404
Zebiniso SADULLOYEVA Jarh ilmining kelib chishi.....	409
Alijon RAVSHANOV Shar’iy hukmlarni istinbot qilishda hanafiy mazhabining ijtihodiy uslubi.....	415
To’lqin AZIMOV Sun’iy intellekt orqali diniy manbalarni talqin qilishdagi muammolar.....	422
Bekjon QURBONOV O’zbekistonda diniy bag’rikenglik: tarixiy asoslar va huquqiy kafolatlar.....	426
Islombek DADABAYEV Zamaxshariyning hayoti va ilmiy faoliyati.....	431
Ahrorxon ABDURASHIDOV Fitna so’ziga berilgan ta’riflar tahlili.....	439
Диёра СУННАТОВА, Нигора ХАКИМОВА Классификация хадисов в усуль аль-фикхе.....	443

Нигора ХАСАНОВА, Нигора ХАКИМОВА Мнения представителей правовых школ о предпочтении хадисов перед аналогией....	450
Зилола СОБИРЖОНОВА Первые теоретические основы ханафитского правосудия.....	455
MUNDARIJA	463

Islom dini asl manbalarini talqin qilishdagi yondashuvlar: muammo va yechimlar II

Mas'ul muharrir:

Uyg'un G'AFUROV – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti
rektori, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:

Suvonov Fazliddin Sodiqovich
Mirzamiddinov Asliddin Abdumuminovich
Abduvoxidov Abdullo Shukrullo o'g'li
Naqibxonov Saidasror Osimxon o'g'li

Musahhih:

Normatov To'liqin

Badiiy muharrir:

Suhayl Muhammad

Bosishga ruxsat etildi 18.08.2025.

Bichimi 70x100 1/16.


“Cambria” garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

29.25 bosma taboq.

Adadi 100 nusxa.

Tasdiqnoma raqami №125720
«Sahifa» nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani
Kichik Beshyog'och ko'chasi, 128-uy




Sahifa

